

## TALABALARNING MAVZUNI QABUL QILISH VA O'ZLASHTIRISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

*Musaev Masut Tulkunovich*

*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport Universiteti  
Sport psixologiya va pedagogika kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Zamonaviy darsda pedagogik texnologiya metodlarini qo'llash orqali dars davomida qo'shimcha ma'lumot (tarqatma material, test, masala, topishmoqlar, savol-javoblar, turli krossvordlar, tajribalar va h.k.)lar asosiy mavzuni qamrab olishi kerak. O'quvchilar darsning yakunida o'tilgan mavzu yuzasidan darslik asosida tabiatda sodir bo'ladigan hodisalarga bog'liq holda ilmiy ma'lumotlar, fan-texnika taraqqiyoti sohasidagi o'rni haqida yetarli bilimlar, shuningdek, o'tmishda yashab o'tgan qomusiy olimlarning mazkur soha rivojlanishiga qo'shgan hissalar haqida ham ma'lumotga ega bo'lishlari lozim. Buning uchun har bir darsda pedagogik texnologiyaning o'tilayotgan mavzuga mos va qulay bo'lgan metodlaridan foydalanish kerak. Bu faoliyatni amalga oshirishda esa o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat talab etiladi.

**Kalit so'zlar.** Pedagogik texnologiya, ta'lim, talabalar o'zlashtirishi, ta'lim texnologiyalarini qo'llash

Tibbiy ta'limda fanlarni o'qitishda zamonaviy talablarga javob beruvchi va yosh mutaxassislarining tahsil olish samaradorligini ta'minlovchi hamda ta'lim olayotganlarga mo'ljallangan va ularning bu jarayonda faol ishtirokiga ega bo'lish maqsadida interaktiv usullar o'kitishning barcha turlarida tadbiq etish rejalashtirilgan. Bu usullar o'qish jarayonini jadallashuvini ta'minlashning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyaning qaysi metodidan foydalanishdan qat'i nazar, dars samaradorligini oshirish asosiy maqsad bo'lib, bunda pedagogik mahorat hal qiluvchi omil hisoblanadi. Darslarda zamonaviy pedagogik texnologiyaning metodlaridan foydalanishning quyidagi afzalliklari mavjud:

- o'quvchilarning bilish faoliyati oshadi;
- eng dolzarb muammolarni hal qilish imkoniyati yuzaga keladi;
- mashg'ulot davomida o'quvchilar o'rtasida o'zaro yordam, do'stona munozara hosil bo'lishiga erishiladi;
- o'quvchilar tayyorgarlik davomida darslik, qo'shimcha adabiyotlardan mustaqil foydalanadilar;
- o'quvchilar mashg'ulotga katta qiziqish bilan tayyorgarlik ko'radilar, natijada mustaqil ravishda yangi bilimlarni egallash samaradorligi ortadi;

- o'quvchilarning o'z bilimini va iqtidorini sinab ko'rish, o'z-o'zini baholash, kasb tanlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bunday natijalarga erishish uchun esa har bir o'qituvchi o'z kasbiy pedagogik mahoratini oshirib borishi, shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning pedagogik, psixologik va boshqa jihatlarini puxta o'rganishga harakat qilishi, o'zi ishlab turgan maktab muhiti va istiqbollariга eng muvofiq bo'lgan pedagogik texnologiyalarni to'g'ri tanlay olishi zarur.

Oliy ta'lim muassasalari kafedra amaliyotida sinalgan va yaxshi tanilgan quyidagi usullar qo'llaniladi:

1. Kichik guruhlarda ishlash (aylana stol, stol markazidagi ruchka, galereya buylab sayohat, rotatsiya, qor parchalari, asalari uyasi va b.). Kichik guruhlar bilan ishlash usullaridan barcha mashg'ulotlarda foydalaniladi. Bu usuldan foydalanishdan maqsad, fikr va g'oyalar almashish yordamida talabalarni o'quv jarayonida ishtirokini faollashtirish va aniq mavzu yuzasidan guruhdagi g'oyalarning xilma-xilligini aniqlash.

2. Guruhlarda o'quv jarayonini uyg'unlashtiruvchi usullar (vaziyatli masalalar, klaster, baliq skeleti, Venn diagrammasi, BBB, assesment va b.). Mazkur usullarni qo'llash ko'zda tutilgan va vrach amaliyotida ko'p uchraydigan kasalliklarning nur tashxisini talabalar tomonidan chuqur o'rganishga imkon yaratadi. Bu usuldan foydalanishdan maqsad, talabalarni erkin fikrlashga va o'z bilimlarini aniq vaziyatlarda qo'llay bilishga o'rgatish.

O'quv jarayonni talab darajasida olib borish uchun «Internet» axborot bazasidan kompyuter yordamida keng foydalanish, o'quv, uslubiy qo'llanmalar sifatini oshirish, audio va ko'ruv vositalari hamda turli o'quv o'yinlar va masalalardan keng foydalanish kerak. Buning uchun kafedrada kompyuter xonasida kompyuter, noutbuklar, mavzular bo'yicha multimedialar mavjud. Doimiy ravishda talabalar zamonaviy zarur adabiyotlardan foydalangan holda, a'zolar rentgen anatomiyasi, kasalliklarda rentgenologik simptom va sindromlar, tekshirish usullari ahamiyatini hisobga olgan holda o'zlashtirishlari lozimligi o'rgatiladi.

Talaba ma'lumotlarni faqat eshitish orqali qabul qilsa, berilgan ma'lumotlarning o'rtacha 20 foizini o'zlashtiradi. Shu sababli agar ma'ruza faqat mavzuni og'zaki tushuntirish shaklida (an'anaviy) o'tilsa, talabalar darsda berilgan ma'lumotlarning 80 foizini esda saqlab qolmaydi va darrov unutishadi. O'rtacha odam bir minutda 800 tagacha so'zni eshitishi va tushunishi mumkin. Vaholanki, auditoriyadagi talabalar o'qituvchi nutqiga nisbatan 4 marta tez eshitish qobiliyatiga ega. Demak, og'zaki tushuntirish vaqtida vaqtning 75% qismida talaba eshitmaydi, u bo'sh qoladi, agar o'qituvchi faqat og'zaki tushuntirib, ma'ruza qilsa talaba diqqatini yo'qotadi. Shu sababli ma'ruzani faqat o'qib berish yoki og'zaki tushuntirish shaklida olib borish samarasiz hisoblanadi. Agar talaba ma'lumotlarni bir marta o'zi o'qisa, u 25 foiz ma'lumotni eslab qoladi. Demak, ma'ruzada talabalar oldida ma'ruza qilish bilan

birgalikda, ulardan mavzuning asosiy joylarini dars davomida o'zlari o'qishlari talab etilsa, ma'ruza samarasi ortadi. Buning uchun slaydlar, tayanch iboralar, tarqatma materiallar zarur bo'ladi va ma'ruza davomida ulardan talaba faolligi ta'minlangan holda foydalaniladi. Agar berilayotgan ma'lumotlar ikki marta takrorlansa, talaba ma'lumotlarning 30%ini eslab qoladi.

Agar talaba yozib, o'qisa ma'lumotlarni 45%gacha o'zlashtiradi. Demak, ma'ruzaning tayanch iboralari ma'ruza davomida yozdirib borilsa, o'zlashtirish ikki marta ortadi. Talaba o'rtacha bir minutda 40 tagacha so'z yozishi mumkin. Lekin, maqsad faqat tez yozdirish bo'lib qolsa, natija yetarli darajada samarali bo'lmaydi. Shuning uchun ma'ruzaning tayanch iboralari yozdirilayotganda, talabaga diqqatini jamlab, tushunib yozishi uchun vaqt berish kerak, ya'ni yozdirilayotgan iboralarni to'xtab-to'xtab, sekin ifoda etish zarur. Ko'pchilik muhokama, bahs jarayonida ma'lumotlarning 60 foiziga yaqinini o'zlashtiradi, ya'ni o'quv jarayoni oddiy ma'ruza o'qishga nisbatan 3 marta samarali bo'ladi. Talaba berilayotgan ma'lumotlarni hayotiy tajribasi orqali taqqoslasa, bilim amaliyot orqali yetkazilsa, talabalarga doimiy ushbu materiallarni real hayotda kerak bo'lishi tushuntirilsa, mashg'ulotda mavzuni real hayot bilan bog'lab talabalarning faol fikr bildirishlariga sharoit yaratilsa, mavzu bo'yicha berilayotgan ma'lumotlarni talabalar tomonidan 80 foizgacha o'zlashtirishlariga erishish mumkin.

Ayrim pedagoglar o'qitishning interaktiv uslublari deganda, zamonaviy o'quv-vizual materiallar (oddiy multimedia va animatsion slaydlar, tarqatma materiallar, ma'ruza matnlari, texnik vositalarning modellari, maketlari va b.)dan hamda zamonaviy texnik vositalar (kompyuterlar, elektron doskalar va b.)dan foydalanish, ma'ruza matnlarini oldindan talabaga taqdim etib, talabaning darsga tayyor bo'lib kelishini ta'minlash kabilarni tushunishadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashdan maqsad o'qituvchining haqiqiy o'qituvchilik faoliyatiga o'tishi, ya'ni u bolani o'qitishi emas, o'quvchilarning bilimlarni o'rganish, o'zlashtirish bo'yicha mehnatiga rahbarlik qilish, ularga qulay, oson, maqsadga tez yetkazadigan va samarali yo'lyo'riqlar, usullarni to'g'ri tanlab ko'rsatish va amalda samarali qo'llash orqali o'z pedagogik mahoratini hamda o'quvchilarning bilimlari sifati va tarbiyalanganlik darajasini muntazam oshirib borishga erishishdan iborat.

**Xulosalar:** 1. Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish, ta'lim oluvchilarning mustaxkam nazariy bilim, faoliyat, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularni kasbiy mahoratga aylanishini ta'minlash maqsadida o'qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish davr taqozosi hamda ijtimoiy zaruriyat sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda.

2. Ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyani tadbqiq etish kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgan umumiy jarayon mazmunining sifat jihatdan o'zgarishini ta'minlaydi.

3. Yangi pedagogik texnologiya nazariyasi g'oyalaridan foydalanish asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalash borasidagi ijtimoiy buyurtmaning bajarilish xolatining sifat ko'rsatkichiga ega bo'lishiga olib keladi.

4. Barkamol shaxs va malakali mutaxassislarning ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi faoliyatlari hamda ularning samarasi ijtimoiy taraqqiyotning tezlashuviga olib keladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T.: «Iste'dod», 2008.

2. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: «Fan va texnologiya», 2008. –124-b.

3. Современные образовательные технологии:/ коллектив авторов; под ред. Н. В. Бордовской.-2- изд., стер. – М.: КНОРУС, 2011.- 432 с.

4. Ефремова Н. Ф. Подходы к оцениванию компетенций в высшем образовании: учебное пособие. - М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов НИТУ «МИСиС», 2010.-216 с.

5. Бобоева М.Н. Проблемная образовательная технология в изучении систем линейных уравнений с многими неизвестными // Наука, техника и образование. 73:9 (2020). С. 48-51.

6. Умарова У.У. Роль современных интерактивных методов в изучении темы «Множества и операции над ними» // Вестник науки и образования. 94:16 (2020), часть 2. С. 21-24.

7. Boboeva M.N., Rasulov T.H. The method of using problematic equation in teaching theory of matrix to students // Academy. 55:4 (2020). С. 68-71.

8. Rasulov T.H., Rashidov A.Sh. The usage of foreign experience in effective organization of teaching activities in Mathematics // International Journal of Scientific & Technology Research. 9:4 (2020). С. 3068-3071.

9. Мороченкова И. А. Формирование критического мышления студентов в вузе. Дис. ... канд. пед. наук. — Оренбург, 2014.